

NAVOIY VILOYATI SANOATINING ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI

ANALYSIS OF INDUSTRIAL PRODUCTION INDICATORS AND THE STATE OF ECONOMIC DEVELOPMENT OF NAVOI REGION

¹**Barnoqulova Marjona**
Otabek qizi

¹Sarbon universiteti o'qituvchisi, **ORCID:** 0009-0007-1334-6819,
G-mail: barnoqulovamarjona@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Global iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish hajmlarining ortishi, tabiiy resurslardan foydalanish intensivligining keskin oshishi hamda urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi atrof-muhitga bosimni kuchaytirmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi manbalardan foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali iqtisodiy o'sishning ekologik ta'sirini cheklashga erishilmoqda. Shu bilan birga, sanoatlashuvning jadallashuvi ekologik yuklamani oshirib, iqtisodiy siyosatda ekologik omillarni kompleks hisobga olish zaruratini kuchaytirmoqda.

Eng. - In the global economic system, the growth of production volumes, the intensive utilization of natural resources, and the rapid pace of urbanization have significantly increased environmental pressure. International experience demonstrates that the concept of a "green economy" plays a vital role in ensuring sustainable development in both developed and developing countries. Enhancing energy efficiency, expanding the use of renewable energy sources, and reducing waste generation contribute to minimizing the environmental impact of economic growth. At the same time, the acceleration of industrialization increases ecological burdens and strengthens the necessity of comprehensively integrating environmental factors into economic policy. In this context, the analysis of industrial production indicators and the economic development of the Navoi region is of particular importance for identifying opportunities for sustainable regional growth and improving industrial efficiency.

Kalit so'zlar: **Keywords:**

❖ *mintaqaviy rivojlanish, ekologik omillar, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish, yashil iqtisodiyot, ekologik boshqaruv, tabiiy resurslardan samarali foydalanish.*

❖ *regional development, environmental factors, economic efficiency, sustainable development, green economy, environmental management, efficient use of natural resources.*

Kirish.

O'zbekiston sharoitida ham iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi

muvozanatni ta'minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda sanoatning hududiy ixtisoslashuvi, ayniqsa Navoiy

viloyatida kon-metallurgiya, kimyo va energetika tarmoqlarining ustunligi resurslardan intensiv foydalanish va ekologik bosimning kuchayishiga olib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yildan boshlab sanoat ishlab chiqarishi hajmi 7-8 foiz atrofida o'sib, uning asosiy qismi resurs talabchan tarmoqlarga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga, atmosfera emissiyalari hajmi yiliga 2,5-3,0 mln. tonna diapazonida saqlanib qolmoqda, sanoat chiqindilari esa 100 mln. tonnadan oshib bormoqda. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligi ham yetarli darajada emas bo'lib, qishloq xo'jaligida suv yo'qotishlari 35-40 foiz ni tashkil etmoqda. Ushbu holatlar iqtisodiy rivojlanishning ekologik cheklovlar bilan uyg'unligini ta'minlash zaruratini kuchaytiradi. Shu bois, milliy iqtisodiyotda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy etish, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash va mintaqaviy darajada iqtisodiy-ekologik rivojlanishni samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi. Mazkur muammo O'zbekiston Respublikasining bir qator normativ-huquqiy hujjatlarida ham o'z aksini topgan. Xususan, "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, hamda "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun iqtisodiy faoliyatni ekologik talablar asosida tashkil etishni belgilab beradi. Shuningdek, "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi [1]" mamlakatda iqtisodiy o'sishni resurs tejamkor va ekologik xavfsiz model asosida rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Energiya samaradorligi to'g'risida"gi Qonuni, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, hamda "Chiqindilar to'g'risida"gi Qonuni ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashni talab etadi. Ushbu huquqiy asoslar mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ekologik omillar bilan

integratsiyalash zarurligini yanada kuchaytiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Michael E. Porter sanoat rivojlanishini hududiy klasterlar orqali shakllantirish eng samarali yondashuvlardan biri ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ishlab chiqarish korxonalarining geografik yaqinligi innovatsiya va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Klasterlash modeli orqali resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi va tranzaksiya xarajatlari kamayadi. Porter sanoat siyosatida davlatning qo'llab-quvvatlovchi roli muhimligini ham qayd etadi. Bunday yondashuv eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga xizmat qiladi [2]. Shu jihatdan, Navoiy viloyati sanoati uchun klaster modeli strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jeffrey D. Sachs barqaror rivojlanish konsepsiyasini zamonaviy iqtisodiyotning asosiy yo'nalishi sifatida talqin qiladi. U iqtisodiy o'sish ekologik muvozanat bilan uyg'un bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi. Sachs fikricha, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi. Yashil iqtisodiyot modeliga o'tish energiya samaradorligini oshirishni talab qiladi. Shuningdek, u rivojlanayotgan hududlarda ekologik innovatsiyalarni joriy etishni muhim deb biladi [3]. Bu yondashuv Navoiy viloyati sanoatini barqaror rivojlantirish uchun dolzarb hisoblanadi.

Joseph E. Stiglitz iqtisodiy rivojlanishda davlatning faol ishtirokini muhim omil sifatida ko'radi. Uning fikricha, bozor mexanizmlari har doim ham resurslarni samarali taqsimlay olmaydi. Shu sababli sanoat siyosatini davlat tomonidan tartibga solish zarur hisoblanadi. Stiglitz innovatsion rivojlanish davlat va xususiy sektor hamkorligiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish barqaror o'sishga olib kelishini aytadi [4]. Bu qarashlar Navoiy viloyati sanoat

siyosatini takomillashtirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda mintaqaning iqtisodiy va ekologik statistik ma'lumotlari tahlil qilindi. Tadqiqot aralash yondashuv (mixed-methods) asosida olib boriladi, ya'ni sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) usullar integratsiyalashgan holda qo'llaniladi. Bunday yondashuv ekologik jarayonlarning murakkabligi va hududiy xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur metodologiya ekologik muammolarni hududiy va raqamli yondashuv asosida chuqur tahlil qilish imkonini beradi. GIS, masofaviy zondlash va sun'iy intellekt asosidagi metodlar ekologik monitoring aniqligi va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Navoiy viloyati sanoat salohiyati tufayli respublika hududlari orasida yuqori YHM ulushiga ega mintaqalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda viloyatda kon-metallurgiya va energetika tarmoqlari iqtisodiy o'sishning

asosiy drayveri bo'lib xizmat qilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020-2025-yillarda viloyat YHM hajmi barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatgan, 2026-yilda esa modernizatsiya loyihalari hisobiga o'sish sur'ati saqlanib qolishi prognoz qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasining hududiy rivojlanish strategiyalari ham sanoatni diversifikatsiya qilishni ustuvor yo'nalish sifatida belgilaydi [5]. Shu tariqa, YHM dinamikasi Navoiy viloyatida iqtisodiy o'sish barqaror ekanini ko'rsatmoqda. Navoiy viloyati bo'yicha so'nggi yillar dinamikasi shuni ko'rsatadiki, sanoat hajmi oshganiga qaramay emissiya o'sish sur'ati sekinlashgan. Bu modernizatsiya jarayonining boshlang'ich ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa Navoiy viloyati ekologik Kuznets egri chizig'ining burilish nuqtasiga yaqinlashayotganini ko'rsatishi mumkin. Biroq hali to'liq pasayuvchi segmentga o'tilmagan. Xorijiy tajribada yuqori daromadli iqtisodiyotlarda karbon intensivligi YaIM o'sishidan uzilgan (decoupling effekti). Navoiy viloyatida esa qisman ajralish jarayoni kuzatilmoqda, lekin resurs sig'imi hanuz yuqori.

1-jadval

YaIM va emissiya o'rtasidagi bog'liqlik (Navoiy viloyati) [6]

Yil	Sanoat mahsuloti (trln so'm)	Emissiya (ming tonna)	Energiya sig'imi
2015	32,5	125	0,58
2017	41,2	122	0,54
2019	49,0	119	0,50
2021	60,7	117	0,46
2023	78,4	112	0,42
2025	95,2	107	0,38
2027*	113,5	100	0,34
2029*	133,2	92	0,30


1-jadval 2015-2030-yillar davomida sanoat ishlab chiqarishi, emissiya hajmi va energiya sig'imi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kompleks tarzda ifodalaydi hamda mintaqaning iqtisodiy-ekologik rivojlanish dinamikasini baholash imkonini beradi. Undagi ma'lumotlar asosida iqtisodiy o'sishning ekologik samaradorlik bilan qanday uyg'unlashib borayotgani aniqlanadi.

2026-2030-yillar prognoz ko'rsatkichlari barqaror rivojlanishning istiqbolli modelini aks ettiradi. 2015-2020-yillar oralig'ida sanoat mahsuloti 32,5 trln. so'mdan 52,3 trln. so'mgacha oshgan bo'lsa, emissiya hajmi 125 ming tonnadan 118 ming tonnagacha kamaygan. Bu davrda iqtisodiy o'sish bilan birga ekologik yuklama nisbatan sekin pasaygan bo'lib, bu jarayonni qisman

texnologik modernizatsiya va energiya samaradorligining oshishi bilan izohlash mumkin. Energiya sig'iminining 0,58 dan 0,48 gacha pasayishi ishlab chiqarish jarayonlarida energiyadan foydalanish samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi. Biroq emissiya kamayish sur'ati nisbatan past bo'lgani ushbu bosqichni "o'tish davri" sifatida tavsiflash imkonini beradi.

2021–2025-yillar davrida sanoat mahsuloti keskin o'sib, 60,7 trln. so'mdan 95,2 trln. so'mgacha yetadi. Shu bilan birga emissiya hajmi 117 ming tonnadan 107 ming tonnagacha kamayadi. Bu davrda iqtisodiy o'sish va emissiya o'rtasida aniq decoupling (ajralish) jarayoni kuzatiladi, ya'ni ishlab chiqarish hajmi ortayotgan bo'lsa-da, ekologik zarar kamayib bormoqda. Energiya sig'iminining 0,46 dan 0,38 gacha pasayishi energiya tejavchi texnologiyalar, modernizatsiya va ishlab chiqarish samaradorligining oshganini bildiradi. Ushbu bosqichni "faol ekologik transformatsiya" davri deb baholash mumkin.

2026–2030-yillar prognoz davrida esa ushbu tendensiya yanada kuchayadi. Sanoat mahsuloti 104 trln. so'mdan 144 trln. so'mgacha oshishi kutilmoqda, emissiya esa 104 ming tonnadan 88 ming tonnagacha kamayadi. Energiya sig'iminining 0,36 dan 0,28 gacha pasayishi ishlab chiqarishning energiya samaradorligi keskin oshganini ko'rsatadi. Bu davrda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, raqamli boshqaruv tizimlari va ekologik texnologiyalar keng joriy etilishi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur natijalar iqtisodiyotda "yashil intensiv o'sish" modeli shakllanayotganini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish hajmi ortib borayotgan bo'lsa-da, energiya sig'imi kamayib, emissiya qisqarib bormoqda. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va ekologik siyosatning kuchaytirilishi natijasida iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlik o'rtasida muvozanat ta'minlanayotganini ilmiy jihatdan asoslaydi.



1-rasm. Navoiy viloyatida sanoat o'sishi va emissiya dinamikasi [6]

1-rasmda 2015–2030-yillar davomida sanoat mahsuloti va emissiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni dinamik tarzda aks ettirib, mintaqada iqtisodiy o'sish va ekologik yuklama o'rtasida teskari bog'liqlik shakllanayotganini yaqqol ko'rsatadi. Unda sanoat ishlab chiqarishi hajmining 32,5 trln. so'mdan 144 trln. so'mgacha izchil oshib borishi fonida

emissiya hajmining 125 ming tonnadan 88 ming tonnagacha kamayishi kuzatiladi. Mazkur tendensiya iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy modelidan farqli ravishda, resurslardan samarali foydalanish, energiya sig'iminining pasayishi va ekologik texnologiyalarning joriy etilishi hisobiga

“yashil intensiv o‘shish” modeliga o‘tilayotganini anglatadi.

Navoiy viloyatida energiya iste‘moli respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori, chunki hududda elektr energiyasi talab qiluvchi sanoat tarmoqlari ustun. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, 2020–2023-yillarda energiya iste‘moli ishlab chiqarish hajmi bilan birga oshgan. Biroq energiya sig‘imi asta-sekin pasaymoqda, bu esa samaradorlikning oshayotganini ko‘rsatadi, biroq uning ekologik yuklama bilan bog‘liqligi alohida tahlilni talab qiladi.

Xulosa va takliflar.

Navoiy viloyati respublika miqyosida sanoatlashgan hudud sifatida YaIM tarkibida yuqori ulushga ega bo‘lib, iqtisodiy o‘shish asosan kon-metallurgiya, kimyo va energetika tarmoqlariga tayangan holda shakllanmoqda. Biroq ushbu tarkibiy ustunlik resurs sig‘imining yuqoriligi bilan birga ekologik yuklamaning ham sezilarli darajada shakllanishiga olib kelmoqda. Viloyat tumanlari kesimida sanoat ixtisoslashuvi notekis taqsimlangan bo‘lib, Zarafshon, Uchquduq va Tomdi hududlarida konchilik, Navoiy shahri va Karmana tumanida kimyo hamda energetika konsentratsiyasi yuqori ekanligi aniqlangan. Bu esa iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda ekologik bosimning hududiy nomutanosibligini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “2019 – 2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori.
2. Porter M. E. et al. *The five competitive forces that shape strategy* //Harvard business review. – 2008. – T. 86. – №. 1. – P. 78.
3. Sachs J. D. *The end of poverty: Economic possibilities for our time.* – Penguin, 2006. URL: <https://surl.lu/gbwpy>
4. Stiglitz J. E. *Capital market liberalization, economic growth, and instability* //World development. – 2000. – T. 28. – №. 6. – P. 1075-1086.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
6. Navoiy viloyati statistika byurosi (2025). *Hududiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisobot.* Toshkent.

Emissiya hajmi, suv iste‘moli va sanoat chiqindilari ko‘rsatkichlari viloyatda ekologik ta‘sirning asosiy indikatorlari sifatida namoyon bo‘lib, ayniqsa yuqori sanoatlashgan zonalarda atmosfera va yer resurslariga bosim darajasi yuqoriligi kuzatildi. Shu bilan birga, 2030-yilgacha modernizatsiya choralari natijasida ushbu ko‘rsatkichlarning nisbiy pasayishi prognoz qilindi.

Resurs sig‘imining yuqoriligi sanoat rentabelligini energiya va xomashyo narxlariga bog‘lab qo‘yayotgani, bu esa iqtisodiy barqarorlikni tashqi omillarga sezgir qilib qo‘yayotgani aniqlandi. Shu sababli energiya samaradorligi va yuqori qo‘shilgan qiymatli segmentlarni kengaytirish iqtisodiy xavfsizlikning muhim sharti sifatida baholandi. Rekultivatsiya darajasining oshirilishi va chiqindilarni qayta ishlash ulushining kengayishi ekologik bosimni kamaytirishning asosiy vositasi ekanligi asoslandi. Biroq mavjud sur‘atlar uzoq muddatli ekologik barqarorlik uchun yetarli emasligi, rekultivatsiya ishlarini jadallashtirish zarurligi aniqlangan.

Ekologik yuklama bilan bog‘liq iqtisodiy zarar YaIMning ma‘lum foizini tashkil etishi mumkinligi baholandi, bu esa sanoat rivojlanishini rejalashtirishda ekologik omillarni iqtisodiy hisob-kitoblarga integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ekologik xarajatlarni ichkilashtirish uzoq muddatda investitsion jozibadorlikni oshiruvchi omil sifatida talqin qilindi.